

“Hududgazta’minot” AJ ishchi-xodimlariga shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlash TARTIBI

“Hududgazta’minot” AJ ijro apparati, hududiy gaz ta’minoti filiallari va bo‘linmalari ishchi-xodimlariga sog‘lom va qulay mehnat sharoitlarini yaratish maqsadida ularni shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlashning yagona tartibini va normalarini, ularni materiallariga, tayyorlashga, ishlatishga, saqlashga, tutishga va utilizatsiya qilishga bo‘lgan talablar belgilab berilgan.

Hujjatga kiritilmagan, lekin sifati, tayyorlanishi va himoyani ta’minlash darajasi talablariga javob beradigan ShHV bo‘yicha talablar “Hududgazta’minot” AJ rahbariyati tomonidan belgilab beriladi. Bunday ShHVlarning texnik tavsiflari “Hududgazta’minot” AJning MMQ, E va SX boshqarmasi hamda kasaba uyushmalari qo‘mitasi bilan kelishiladi.

Hujjat talablari “Hududgazta’minot” AJ ijro apparati va barcha hududiy gaz ta’minoti filiallari va bo‘linmalari (keyingi o‘rinlarda – korxonalar)ga taalluqlidir.

Xodimlarga bepul beriladigan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalari amaldagi normativ hujjatlar va GOSTlar asosida beriladi.

Izoh - hujjatdan foydalanishda havola qilingan hujjatlar va klassifikatorlarning O‘zbekiston hududida amal qilishini umumiy foydalanishdagi axborot tizimi – O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy saytida, Internet tarmog‘ida yoki joriy yilning 1 yanvar holatiga har yili chop etiladigan standartlar bo‘yicha axborot ko‘rsatgichida, shuningdek Texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy saytida joriy yilda e‘lon qilingan har oylik tegishli axborotda tekshirish maqsadga muvofiqdir. Agar havola etilayotgan hujjat almashtirilgan (o‘zgartirilgan) bo‘lsa, almashtirilgan (o‘zgartirilgan) hujjatdan foydalanish kerak. Agar havola etilayotgan hujjat almashtirilmasdan bekor qilingan bo‘lsa, u holda unga havola etilgan holat, ushbu havola ta’sir qilmaydigan qismida qo‘llaniladi.

Asosiy atamalar, ta’riflar va qisqartmalar

Hujjatda tegishli ta’riflanishi berilgan quyidagi atamalar qo‘llanilgan:

Antiseptik vositalar (antiseptiklar): Mikroblarga qarshi ta’sir ko‘rsatuvchi kimyoviy moddalar. Qo‘llash sharoitlariga qarab antiseptiklar ayrim holatlarda mikroblarni butunlay halok qiladi, ayrim holatlarda esa – ular o‘rishini to‘xtatadi. Antiseptiklar teri va shilliq pardalarni moylashda qo‘llaniladi, ularning eritmalari bilan yaralar yuviladi, tamponlar va namlanuvchi-quritiluvchi bintlar singdirib

namlanadi, yaralar va bo'shliqlar xo'llanadi, kukunsimon antiseptiklar yaralar ustiga sepiladi.

Ishlab chiqarishning zararli omili: Muayyan sharoitlarda ishlov-chiga ta'sir ko'rsatishi tufayli kasallanishga, ishlash layoqatini pasaytirishga olib keluvchi va/yoki ishchining avlodlari sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omili.

Navbatchi shaxsiy himoya vositalari (navbatchi ShHV): Jamoaviy foydalanish uchun mo'ljallangan navbatchi ShHV (himoya ko'zoynagi, dielektrik kalish va qo'lqop, dielektrik rezina gilamcha va b.) ishchilarga shu vositalardan foydalangan holda bajariladigan ishlar uchun beriladi.

Xavf: Odam sog'lig'iga zarar ko'rsatishi va shikast yetkazishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omili.

Tozalovchi va dezinfeksiya qiluvchi vositalar: Ishchi tanasining ochiq qismlarini (qo'llari va yuzini) himoya qilishga, tozalashga va kimyoviy ishlab chiqarish omillari va mikroblardan regeneratsiya qilishga mo'ljallangan yuvish vositalari, sovun, turli kremlar, antiseptiklar va boshqa dezinfeksiya vositalari.

Maxsus kiyim-bosh: Ish joyida ishchi-xodimlar sog'lig'i uchun zararli va xavfli omillardan himoyalashga mo'ljallangan shaxsiy himoya vositalari va kiyim-bosh (kostyum, kombinezon, xalat, ichki kiyim, fartuk, yengliklar va b.)

Shaxsiy himoya vositalari (ShHV): Zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarini ishchi-xodimlarga ta'sirini oldini olishda yoki kamaytirishda, shuningdek ifloslanishlardan himoya qilishda ishchi tomonidan ishlatiladigan himoya vositalari. Uskuna konstruksiyasi, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkillashtirish, arxitektura-rejalashtirish yechimlari va jamoaviy himoya vositalari bilan ishlarning xavfsiz bajarilishini ta'minlash imkoni bo'lmagan holatlarda qo'llanadi.

Korporativ uslub: "Hududgazta'minot" AJni identifikatsiyalovchi va raqobatchilardan farqlanishini ta'minlovchi doimiy vizual va matn element-larining yagona ko'rinishi.

Shaxsiy himoya vositalari tasnifi

ShHV uch guruhga bo'linadi:

1) Maxsus kiyim-bosh va maxsus poyabzal – ishlovchilarni turli ifloslanishlardan, mexanik shikastlanishlardan, yuqori harorat va sovuq haroratdan, agressiv suyuqliklardan himoyalash uchun mo'ljallangan kiyim-bosh va poyabzallar (kombinezonlar, xalatlari, kostyumlar, etiklar, botinkalar, piymalar, ro'mollar, bosh kiyimlar)

2) Shaxsiy himoyaning texnik vositalari – nafas olish organlarini (niqoblar, respiratorlar, gazniqoblar), eshitish organlarini (berushi, quloqchin, antifonlar), ko'rish organlarini (ko'zoynak, qalqonlar, niqoblar) tebranishdan (tebranishga qarshi qo'lqoplar), elektr toki ta'siridan (dielektrik qo'lqoplar,

kalishlar, gilamchalar), mexanik shikastlanishdan (kaskalar, xavfsizlik kamarlari, qo‘lqoplar, besh barmoqli qo‘lqoplar) va boshqa xavfli va zararli omillardan himoyalash uchun mo‘ljallangan himoya vositalari.

3) Yuvish va zararsizlantirish vositalari – turli kimyoviy moddalar va iflosliklardan yuz va qo‘l terisini himoyalash vositalari (pastalar, kremlar, yuvish vositalari).